

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA SHEVA

Gulasal Bardiyeva

UrDU Filologiya fakulteti 223-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada Matnazar Abdulhakim asarlarida qo'llangan Xorazmning o'g'uz lahjasiga xos so'zlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: sheva, lahja elementlari, adabiy tildagi muqobil, dialektalizm.

Abstract: The article analyzes the words specific to the Khorezm Oghuz dialect used in the works of Matnazar Abdulhakim.

Key words: dialect, elements of dialect, alternative in literary language, dialectalism.

Абстрактный: В статье анализируются слова, характерные для огузского диалекта Хорезма, используемые в произведениях Матназар Абдулнакима.

Ключевые слова: диалект, элементы диалекта, альтернатива в литературном языке, диалектизм.

Xorazm adabiyotining yetakchi namoyondalaridan biri, iste'dodli shoir, mashhur tarjimon hamda tadqiqotchi olim Matnazar Abdulhakim o'zining betakror misralari, ajoyib ma'no jilvalarini o'zida akslantirgan she'rlari bilan hali ham barcha uchun sevimli va ardoqlidir.

Shoir she'rlari o'zining sodda, samimiyligi va ta'sirli so'zlarga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Matnazar Abdulhakim bir necha ilmiy va tarixiy tarjimalar, ko'plab she'riy to'plamlar muallifidir.

Matnazar Abdulhakim bugungi badiiy-falsafiy lirikamiz rivojiga munosib hissa qo'shgan shoirlardan biridir. Uning to'rtlik, g'azal, sonet, turkum she'rlari va dostonlaridagi hikmatga yo'g'rilgan qarashlari mazmunan teranligi bois o'quvchilar mehrini qozongan²¹.

Matnazar Abdulhakim she'rlari va butun ijodida Xorazm vohasi farzandi ekanligi yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, shoir ijodining yanada ta'sirli, jonli va hayotiyligini oshirishda muhim bo'lgan sheva unsurlariga boyligi buning ifodasidir. Ijodkor asarlarida shevadan o'rinali foydalanishi orqali Xorazmliklarning shirin lafzini ko'rsatib bera olgan.

Sheva. Mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo'lgan, bir yoki bir necha qishloqni o'z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi. Mas., o'zbek tilining Qorabuloq shevasi; o'zbek tilining Niyozboshi shevasi²².

Matnazar Abdulhakim she'rlari orqali sheva elementlari yaqqol ko'rindi.

Oqqushlar

Ko'zlarim o'ngidamas,

Yo'q,

Hayolimda qilar ko'kka parvozlar²³.

²¹ Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. –T.: G'ofur G'ulom, 2016.

²² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. –B. 130.

“Safar taassuroti” deb nomlangan yuqoridagi o’ngidamas so’zi sheva elementi hisoblanadi. Bundan tashqari, “Dunyoning ishlari” she’ridagi netmay so’zi ham shevaga oid so’z bo’lib, adabiy tilda *hech nima qilmay* degan ma’noni anglatadi.

Chuldirardi cho’kib, kelolmay yaqin,
Ko’hma ishq dostonin qayta to’qirdi.
Ammo... Qo’rqmay-netmay bir surbet chumchuq,
*U gulni bemalol cho’qirdi*²⁴.

“Fasllar qo’shig’i” to’plamidan o’rin olgan, 1980-yilda yozilgan yana bir she’rida ham *injalas, esang* kabi shevaga oid so’zlarni uchratish mumkin.

Umrim bor ekan, hamnafasing men,
Roz so’ylar esang, injalas sassing men.
Ishq boshqa, havas boshqa emas, yo’q,
*Ham ishqing o’zim, ham havasing men*²⁵.

Quyidagi “Tabirsiz tush” she’rida ham Xorazm shevasiga xos bo’lgan *horimoq, o’ngarib* kabi so’zlarni uchratish mumkin. *Horimoq* so’zi adabiy tilda *charchamoq* ma’nosini, *o’ngarmoq* so’zi *minmoq* ma’nosini anglatadi.

G’alati tush ko’rdim tunov kun,
Mizg’irkaman peshinda horib.
Kattakon bir laqqa baliqni
*Borardim oq otga o’ngarib...*²⁶

Xorazmda, asosan, ikkita shevadan foydalilanladi, ya’ni o’g’uz va qipchoq lahjasi elementlari mavjud.

Lahja. Mahalliy dialektning bir necha shevadan iborat guruhi²⁷.

Matnazar Abdulhakimning quyidagi to’rtligida ham shevaga oid so’z uchraydi:

Tuhmat bir isirg’a, bir uni ep ko’ramiz
Qulog’qa bir-bir taqamiz zeb ko’ramiz
G’am zahrini hijron ko’lidin necha yurak,
*Totdi, bu luqmani biz ham yeb ko’ramiz*²⁸.

Bu misralardagi *isirg’* so’zi dialektizm hisoblanib, adabiy tildagi *zirak* so’zining muqobilidir. Shoирning navbatdagi “Ellikqal’a haqida qo’shiq” she’rida uchraydigan *manglay* so’zi Xorazm shevasida keng qo’llanib, adabiy tilda *peshona* so’ziga to’g’ri keladi.

Mehnat ijod bilan band tun kunduzlari,

²³ Matnazar Abdulhakim. Fasllar qo’shig’i. –T.: G’ofur G’ulom, 1986. –B. 11.

²⁴ Matnazar Abdulhakim. Fasllar qo’shig’i. –T.: G’ofur G’ulom, 1986. –B. 33.

²⁵ Matnazar Abdulhakim. Fasllar qo’shig’i. –T.: G’ofur G’ulom, 1986. –B. 46.

²⁶ Matnazar Abdulhakim. Fasllar qo’shig’i. –T.: G’ofur G’ulom, 1986. –B. 47.

²⁷ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. –T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. –B. 56.

²⁸ Matnazar Abdulhakim. Tafakkur chorrahalarida. –T.: G’ofur G’ulom, 2002. –B. 53.

Qo'li qadoq manglaylari terlik qal'a-
Ellikqal'a²⁹.

Ma'lumki, adabiy til me'yorlariga ko'ra, shaxs-son qo'shimchalar bo'lishsizlik hosil qiluvchi yo'q so'zidan oldin keladi. Ammo ayrin shevalarda bu qo'shimchalar yo'q so'zidan keyin kelgan shaklda ham uchraydi. Shoirning quyidagi "Yatim ad-dahr"³⁰ ohanglaridan olingan satrlarida bu holatmi ko'rish mumkin. Bu ham Matnazar Abdulhakim ijodidagi sheva elementlaridan biridir.

Sen mol so'rab kelgan yo'q eding,
Dunyo so'rab kelgan yo'q eding,
Dengiz so'rab kelgan yo'q eding,
Daryo so'rab kelgan yo'q eding³¹.

Shuningdek, Matnazar Abdulhakimning Ogahiyga bag'ishlangan "Ogohlar ogohi"ning yozuvchi va jurnalist Ro'zimboy savoliga javoblar qismidan olingan quyidagi jumlada ham sheva elementlarini ko'ramiz:

Matnazar og'a, avvalo Ogahiy bobomizning taxalluslari haqida so'z yuritsak³².

Bu o'rinda *og'a* (adabiy tilda *aka*) so'zi Xorazm shevasidagi har ikkala lahjada ham faol bo'lgan so'zdir. Shoirning quyidagi misralarida o'g'uz lahjasiga xos bo'lgan fonetik, leksik va Grammatik dialektalizm hodisalarini uchratish mumkin:

Boshing omon bo'lsin nerda bo'lsongom,
Go'zzingdagi yoshing yoddon chiqmosin.
Ha-da murod bilan Sultonbovodon
Olib galgan doshing yoddon chiqmosin.
Go'zyoshloring oqib daryo bo'lsolo
Mani yurakimni- bag'rimni dog'lop
G'amni g'orq ataman Sultonbovodon
Akkalgan doshingni bo'yximo bog'lop³³.

Misralarda qayerda so'zining nerda, bo'lsang ham birikmasining bo'lsongom tarzida, *ko'zingdagi* so'zining *go'zzingdagi*, *kelgan* so'zining *galgan*, *tosh* so'zining *dosh*, *ko'zning* esa *go'z* shaklida va bir necha qo'shimchalarining fonetik o'zgarishga uchragan holda qo'llanganligi Xorazm vohasida keng uchraydigan o'g'uz lahjasining yaqqol namunasidir. Bu satrlarda shevalar she'rning jonli va tasvirning aniq chiqishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Matnazar Abdulhakim o'zining o'tkir qalami va lirkada tengsiz ijodkorlardan biri ekanligi bilan Xorazm adabiyoti tarixida, rivojida o'chmas iz qoldirgan hamda serqirra ijodi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham, buyuk shoir tabiiy til sehri bilan bitilgan, jozibador she'rlari orqali hali-hamon barhayotdir.

²⁹ Matnazar Abdulhakim. Ko'prik. –T.: Yangi asr avlod, 2009. –B. 7.

³⁰ Abu Mansur as-Saolibyning buyuk tazkirası, o'zbek tilida nashr qilingan.

³¹ Matnazar Abdulhakim. Tavzo tashrifi. –T.: Sharq, 2008. –B. 75.

³² Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. –Xiva: Xorazm Ma'mun Akademiyasi, 2009. –B .15.

³³ Umid Bekmuhammad. O'g'uz lahjasida jaranglagan she'rlar maqolasidan.-B.5.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. –T.: G'ofur G'ulom, 2016.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. Matnazar Abdulhakim. Fasllar qo'shig'i. –T.: G'ofur G'ulom, 1986.
4. Matnazar Abdulhakim. Tafakkur chorrahalarida. –T.: G'ofur G'ulom, 2002. –B. 53.
5. Matnazar Abdulhakim. Ko'prik. –T.: Yangi asr avlodi, 2009. –B. 7.
6. Matnazar Abdulhakim. Tavzo tashrifi. –T.: Sharq, 2008. –B. 75.
7. Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. –Xiva: Xorazm Ma'mun Akademiyasi, 2009. –B. 15.
8. Umid Bekmuhammad. O'g'uz lahjasida jaranglagan she'rlar maqolasidan. –B. 5.